



“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi  
Korrupsiyaga qarshi kurashish  
agentligi direktori o‘rinbosari

  
U. Mavlyanov  
“20” *fevral* 2023-yil

“TASDIQLAYMAN”

O‘zbekiston Respublikasi  
Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi  
Kadastr agentligi direktorining birinchi  
o‘rinbosari

  
A. Allaberganov  
“ ” \_\_\_\_\_ 2023-yil

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining va O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi bilan hamkorligiga oid  
2023-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlar  
REJASI

T.r	Amalga oshiriladigan tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	Kadastr agentligi hamda Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshiruvchi tuzilmalaridagi vakant lavozimlarni to‘ldirish	Komplayens-nazorat xizmatidagi vakant joylarga tanlov e‘lon qilish, tanlovga yuborilgan hujjatlarni umumlashtirib, tanlov o‘tkazish va tanlov natijalaridan kelib chiqib, xodimlarni tayinlash	2023-yil I yarim yillik	Kadastr agentligi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi

2.	<p>Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarini tizimli ravishda olib borish, korrupsiyaviy xavflarni baholash bo'yicha markaziy apparat tarkibida yangi tuzilma Komplayens-nazorat xizmati joriy etilishi natijasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga asoslangan huquqiy baza yaratish</p>	<p>Amaldagi me'yoriy huquqiy hujjatlarni o'rganib chiqib, xalqaro tajribalarga asosan, korrupsiyaga qarshi muvofiqlik tizimini joriy qilishga oid me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish</p> <p><b>Bunda:</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha reglament</li> <li>2. Xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha nizom</li> </ol>	2023-yil mart-may	<p>Kadastr agentligi</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi</p>
3.	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha normativ hujjatlarining mazmun va mohiyatini tushuntirishga qaratilgan axborot ma'lumotlarini tayyorlash va keng tarqatish, xususan mavzuga oid videoroliklar yaratish, bosma materiallarni chop etish</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish mazmuni o'zida mujassam etgan turli shakldagi ko'rgazmali axborot materiallari, bukletlar, ko'rgazmali materiallar va video roliklar tayyorlash hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilib borish</p>	2023-yil davomida	<p>Kadastr agentligi</p> <p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi</p>

4.	<p>Kadastr agentligi tizimida yuzaga kelayotgan qonunbuzilishi holatlari va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni tahlil qilish, sabab va shart-sharoitlarini kollegial tartibda muhokama qilish</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda Kadastr agentligi tizimida korrupsiyaga oid jinoyatlarning oldini olish hamda ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish va natijalari yuzasidan soha xodimlari o'rtasida korrupsiyani oldini olishga qaratilgan kengaytirilgan muhokama uchrashuvlarini tashkil etish</p>	<p>2023-yil I yarim yillik davomida</p>	<p>Kadastr agentligi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi</p>
5.	<p>Xodimlar malakasini oshirish va jarayonga malakali mutaxassislarni jalb qilish orqali xodimlarning bilim hamda tajribalarini oshirib borish</p>	<p>Malaka oshirish reja-grafigini tasdiqlash va tegishli mutaxassislarni jalb qilgan holda o'quv kurslarini tashkil etish</p>	<p>Doimiy</p>	<p>Kadastr agentligi</p>
6.	<p>Kadastr agentligida fuqarolarni ishga qabul qilish va xodimlarni lavozimga tayinlashda korrupsiya xavflarini minimallashtirish chora-tadbirlarini ko'rish</p>	<p>Kadastr agentligida ishga qabul qilish hamda xodimlarni lavozimga tayinlashning ochiq va shaffofligini ta'minlash, shuningdek nomzodlarning jinoiy javobgarlikka tortilganligini o'rganish</p>	<p>2023-yil davomida</p>	<p>Kadastr agentligi</p>

7.	<p>“Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi” bo'yicha ISO 37001:2016 xalqaro standart sertifikatini olish yuzasidan hamkorlik qilish</p>	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bilan hamkorlikda Kadastr agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ichki hujjatlarining xalqaro standart talablariga muvofiqligini ta'minlash va sertifikatni olish</p>	<p>2023-yil 31-mart</p>	<p>Kadastr agentligi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi</p>
8.	<p>Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini amalga oshiruvchi davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlik olib borish</p>	<p>1. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari bilan hamkorlikni olib borishda doimiy aloqada bo'lish va axborot almashishni yo'lga qo'yish 2. Chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan tegishli taklif va hisobotlarni har chorak yakuni bo'yicha Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga taqdim etib borish</p>	<p>Doimiy</p>	<p>Kadastr agentligi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi</p>
9.	<p>Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ochiq muloqot tashkil etish</p>	<p>“Ochiq eshiklar kuni” tadbirini tashkillashtirish</p>	<p>2023-yil IV-chorak</p>	<p>Kadastr agentligi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi</p>

10.	Agentlik tizimidagi tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha olib borilayotgan faoliyat natijalari yuzasidan mavjud ma'lumotlarning shaffofligi va ochiqligi ta'minlash	Agentlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida olib borilayotgan amaliy tadbirlarni OAVda va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borish	Doimiy	Kadastr agentligi
11.	Agentlik vakolatlariga kiradigan asosiy vazifa va funksiyalarni aholiga ommaviy axborot vositalar orqali tushuntirish va targ'ibot qilinishi natijasida kadastr organlari tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlarning shaffofligi ta'minlash	"Kadastr sohasi korrupsiyadan holi" mavzusini tegishli ko'rsatuv va eshittirishlarda yoritib borish, bunda sohaga oid tartib-taomillar va amalga oshirilayotgan islohotlar haqida nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV ishtirokida davra suhbatlari tashkil etish	Doimiy	Kadastr agentligi
12.	Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan Agentlik vakolati doirasidagi murojaatlarni o'z vaqtida va sifatli ko'rib chiqilishini ta'minlashda yaqindan hamkorlik qilish	Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan kelib tushgan murojaatlar yuzasidan ma'lumotlarni tezkor almashinuvini ta'minlash	Muntazam ravishda	Kadastr agentligi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
13.	Kadastr agentligi xodimlari tomonidan korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etilgan taqdirda, ularning tahlilini olib borish	Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini aniqlash hamda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishi holatlari haqidagi statistikani yuritish	Har chorakda	Kadastr agentligi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi


14.	Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatining ochiqligi to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari ijrosini ta'minlash	"Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligi to'g'risida"gi Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi PF-6247-son va 2022-yil 14-iyundagi PF-154-son Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 15-iyundagi 373-son qarori talablari ijrosini ta'minlash	Doimiy	Kadastr agentligi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
15.	Keng jamoatchilikni ochiqlikka oid qonunchilik hujjatlari bilan tanishtirishga qaratilgan keng ko'lamli targ'ibot tadbirlarini tashkil etish	Kadastr agentligi faoliyati ochiqligini ta'minlash sohasida amalga oshirilgan ishlar hamda ularning natijalari yuzasidan ommaviy axborot vositalari orqali chiqishlar qilish	Doimiy	Kadastr agentligi

**Korrupsiyaga qarshi  
kurashish agentligi  
boshqarma boshlig'i**



**U. Berdiqulov**

**Kadastr agentligining  
Komplayens-nazorat  
xizmati boshlig'i**



**B. Shamansurov**